

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02  
RAQAMLI ILMY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**NUTFULLOYEV TOLIB G'OLIB O'G'LI**

**TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA BIZNES JARAYONLARINI  
RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.15 – “Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti”**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) in  
economical sciences**

**Nutfulloev Tolib G'olib o'g'li**

Tadbirkorlik subyektlarida biznes jarayonlarini rivojlantirish strategiyalarini takomillashtirish..... 3

**Нутфуллоев Толиб Голиб угли**

Совершенствование стратегий развития бизнес-процессов в субъектах хозяйствования..... 25

**Nutfulloev Tolib Golib ugli**

Improving business process development strategies in business entities..... 49

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 55

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02  
RAQAMLI ILMY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**NUTFULLOYEV TOLIB G'OLIB O'G'LI**

**TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA BIZNES JARAYONLARINI  
RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.15 – “Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti”**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida  
B2023.2.PhD/Iqt.3142 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida  
([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Qosimova Dilorom Sobirovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Hoshimov Akrom Abdiyevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Muzaffarxodja Abdupattaxovich Tillyaxodjayev**  
iqtisodiyot fanlari doktori

**Yetakchi tashkilot:**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika  
universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi  
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil «18» 10 kuni soat  
14:00-dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.  
Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: [tdiu@tdiu.uz](mailto:tdiu@tdiu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish  
mumkin (48raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi,  
49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: [tdiu@tdiu.uz](mailto:tdiu@tdiu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «17» 10 kuni tarqatildi.  
(2025-yil «15» 10-dagisini - raqamli reyestr bayonnomasi).



**G.Q. Abduraxmanova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
i.f.d., professor

**O.D. Djurabayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, i.f.d., dotsent

**Sh.A. Allayarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini ta'minlash, ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish va bozor talablariga tezkor moslashuvini kuchaytirish – mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishining eng muhim omillaridan biridir. Bunday sharoitda tadbirkorlik subyektlarida mavjud biznes jarayonlarni tahlil qilish, ularni optimallashtirish hamda strategik jihatdan takomillashtirish zarurati keskin ortmoqda. O‘z navbatida, rivojlangan davlatlar YalIMda kichik biznes subyektlarining ulushlari salmoqli hisoblanadi, xususan, “AQShda 43,5 %ni, Germaniyada 42 %ni, Yaponiyada 53 %ni, va Janubiy Koreyada 37,8 %ni tashkil etadi”<sup>1</sup>. Ushbu rivojlangan mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi ko‘p jihatdan ularning biznes jarayonlarini strategik boshqarish va ularni doimiy takomillashtirib borish qobiliyatiga bog‘liqdir.

Zamonaviy xorijiy amaliyotda biznes jarayonlarni rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan yondashuvlar — innovatsion texnologiyalarga asoslangan avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, jarayonlararo integratsiya, qiymat zanjirini optimallashtirish, mijozga yo‘naltirilganlik tamoyillarining ustuvorligi bilan ajralib turadi. Xalqaro kompaniyalar bugungi kunda biznes jarayonlarni raqamlashtirish, xodimlar samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sikllarini optimallashtirish hamda strategik resurslardan oqilona foydalanish orqali raqobatbardoshlikka erishmoqda. Jalon tajribasi ko‘rsatadiki, biznes jarayonlarni doimiy tahlil qilib borish, ularning kamchiliklarini aniqlash va natijaga yo‘naltirilgan qarorlar qabul qilish korxonaning barqaror ishlashi hamda o‘sish sur’atlarini ta’minlaydigan muhim omildir. Shu bois, ushbu xalqaro amaliy yondashuvlar milliy iqtisodiy tizimga moslashtirilgan holda tadbirkorlik subyektlarining rivojlanish strategiyalarida keng qo‘llanishi katta ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 54,3 %ni tashkil etgan bo‘lib, bu kichik biznes subyektlarining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o‘rni qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatadi. Shuning uchun, tadbirkorlik subyektlarining biznes jarayonlarini rivojlantirish strategiyalarini takomillashtirish masalasi mamlakat iqtisodiyotining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishiga xizmat qiluvchi dolzarb yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Xususan, “2022–2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasining 29-maqсадида kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashga oid quyidagilar belgilangan: tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini

---

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi. Rivojlangan mamlakatlarda (AQSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya) kichik biznes subyektlarining YaIMdagi ulushi bo‘yicha rasmiy statistik manbalar asosida tuzilgan. Asosiy manbalar: OECD. Entrepreneurship at a Glance 2023. Paris: OECD Publishing, 2023. 112 b.; World Bank. Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance. Washington D.C.: World Bank Group, 2022. <https://www.worldbank.org/en/topic/smefinance>

80 foizga, eksportdagi ulushini esa 60 foizga yetkazilishi ko‘zda tutilgan”<sup>2</sup>. Mazkur vazifalar ijrosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini tahlil qilish, unga ta’sir qiluvchi tashqi va ichki omillarni o‘rganib chiqish va ular faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirishda biznes jarayonlarini boshqarish va tashkil etishning strategik modellarini yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar qamrovini kengaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi PF-50-son “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2024-yil 30-avgustdagi PF-132-son “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan to‘rtinchi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2024-yil 23-yanvardagi PQ-39-sonli “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2024-yil 24-maydagi PQ-193-son “Tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarni taqdim etish tartiblarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-yanvardagi 37-son ““Kichik biznesni uzlusiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”dagi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq amalga oshirilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari, shuningdek uni boshqarishda biznes-modellardan foydalanish samaradorligini o‘rganish masalalari xorijlik olimlar — D. Aaker, I. Adizes, I. Ansoff, M. Assen Vann, D. M. Axen, A. Klauz, R. Terner, M. Djonson, K. Kristensen, X. Kagermann, R. Daft, P. F. Druker, T. Konti va boshqalar<sup>3</sup> tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, ularning ilmiy ishlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida biznes jarayonlarini takomillashtirish strategiyalariga alohida e’tibor qaratilgan.

MDH mamlakatlarida kichik biznes va xususy tadbirkorlik subyektlarida biznes jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasining “2022–2026-yillarga Mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi” [https://president.uz/oz/pages/view/strategy?menu\\_id=144](https://president.uz/oz/pages/view/strategy?menu_id=144)

<sup>3</sup> Aaker D. Strategic market administration / D. Aaker. – 7<sup>th</sup> vol. / Pitersburg, 2011. – 496 p.; Adizes I. Razmishleniya o menejmente. -M.: Mann, Ivanov i Feber, 2016. – 478 c.; Ansoff I. Strategic management / Per. Eng. – M.: Ekanomika, 2002.-416 c.; Assen Vann M. key management models. 60 models which should know every manager: - M.: BINOM: Laboratoriya zananiy, 2011. -319 b.; H. James Harrington, Business Process Improvement Workbook: Documentation, Analysis, Design, and Management of Business Process Improvement (New York: McGraw-Hill, 1997).

olimlardan D.Yu. Fraymovich, M.A.Gundorova, Z.V.Mishenko, A.A.Kovalchuk, Ye.V.Melnikova, N.V. Grigoreva, A.A.Solovev, I.V.Kuznetsova, A.N.Lapin, A.M.Gujov<sup>4</sup> va boshqalarning ishlarida ham tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va boshqarishning ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslari tadqiq etilgan.

Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish muammolari, shu jumladan, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va samarali boshqarish jarayonini o‘rganish bo‘yicha U.V.Gafurov, B.T.Salimov, B.O.Tursunov, D.S.Qosimova, E.A.Muminov, Z.A.Xakimov, S.Sh.Yusupov, N.H.Hamidov, M.M.To‘xtayev<sup>5</sup> va boshqa olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq OG-A2-56-sonli “O‘zbekistonda inkluyuziv iqtisodiy osishni ta’minlashning konseptual asoslarini ta’minlash” mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida biznes jarayonlarini rivojlantirish starategiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqarishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

tazbirkorlik subyektlaridagi biznes jarayonlarining nazariy asoslarini o‘rganish;

tazbirkorlik subyektlaridagi biznes jarayonlariga ta’sir etuvchi omillar va asosiy tamoyillarni tadqiq qilish;

O‘zbekistonda biznes jarayonlarini takomillashtirishda xorijiy tajribalarni qo‘llashni o‘rganib chiqish;

O‘zbekistonda tadbirkorlik subyektlaridagi biznes jarayonlarini tashkil qilishning hozirgi holati va muammolarini tahlil qilish;

tazbirkorlik subyektlaridagi biznes jarayonlarini baholashning samaradorligi tahlilini o‘tkazish;

tazbirkorlik subyektlaridagi biznes jarayonlarining o‘zari ta’sirini ekonometrik regressiya usulida o‘rganish;

---

<sup>4</sup> Фраймович Д.Ю., Гундорова М.А., Мищенко З.В., Гужов А.М., Султанова А.В. Развитие малого бизнеса и использование ресурсов в российских регионах. – 2023. – Т. 9, № 1. – С. 45–59.; Ковальчук А.А., Мельникова Е.В. Совершенствование анализа бизнес-процессов в цифровую эпоху. – 2021. – С. 112–117.; Кузнецова И.В. Инновационные подходы к оптимизации бизнес-процессов в условиях цифровизации экономики. Вестник экономики и права. – 2020. С. 85–91.; Лапин А.Н. Стратегическое управление бизнес-процессами в малых предприятиях: теория и практика. Экономика и управление. – 2021. С. 112–119.

<sup>5</sup> Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish: iqt. fan. dok. diss. –T.: 2017. – 309 b.; Qosimova D.S. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. Darslik –T.: “Innovatsion” nashriyot matbaa uyi, 2021. -328 b.; Qosimova D.S. Taqdbirkorlik va innovatsiyalar. O‘quv qo‘llanma –T.: “Innovatsion” nashriyot matbaa uyi, 2023. -258 b.; Salimov B.T. Tadbirkorlik faoliyatini baholash: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – 188 b.; Tursunov B.O., Qodirov M.T. Korxona faoliyatini strategik rejalashtirish. – Toshkent: Fan va taraqqiyot, 2023. – 208 b.; To‘xtayev M.M., Xodjayev A.S. Biznesda samarali qaror qabul qilish: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 192 b.

tazbirkorlik subyektlarida biznes jarayonlarini optimallishtirish usullarini o‘rganib chiqish;

tazbirkorlik subyektlarida biznes jarayonlarini takomillashtirish strategiyalarini to‘g‘ri tanlash yo‘nalishlarini tahlil qilish;

tazbirkorlik subyektlarida biznes jarayonlarini takomillashtirishni prognozlashtirishning ekonometrik modelini aniqlashni o‘rganish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O‘zbekiston Respublikasidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlaridagi biznes jarayonlarini rivojlantirish strategiyalari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlaridagi biznes jarayonlarini rivojlantirish startegiyalarini ishlab chiqishda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda iqtisodiy-statistik usullar, tizimli tahlil, guruhlashtirish taqqoslash, solishtirish, tanlanma kuzatuv usullari, ko‘p omilli ekonometrik tahlillar, prognozlashtirish va boshqa usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “biznes jarayonlarini rivojlantirish strategiyalari” tushunchasining iqtisodiy mazmuni raqobatbardoshlikni oshirish, samaradorlikni maksimal darajaga yetkazish, moslashuvchanlikni ta‘minlashga yo‘naltirilgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining biznes operatsiyalari uzlusizligini ta‘minlash, resurslardan oqilona foydalanish va tashkilotning uzoq muddatli barqaror o‘sishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan yondashuv nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

tazbirkorlik subyektlarida biznes jarayonlarini ko‘p omilli ko‘rsatkichlari tizimi yordamida baholashda “yuqori darajada samarali” ( $YKK_{yu} \geq 30$ ), “o‘rtacha yaxshi” ( $25 \leq YKK_{o‘ya} \leq 29,99$ ), “o‘rtacha zaif” ( $20 \leq YKK_{o‘z} \leq 24,99$ ), “zaif faoliyat” ( $15 \leq YKK_{zf} \leq 19,99$ ), “tanazzul yoqasida” ( $YKK_t < 15$ ) mezonlari orqali guruhlarga ajratilgan holda biznes samaradorligini aniqlash taklifi asoslangan;

kichik biznes subyektlarining biznes jarayonlarini rivojlantirishda bozordagi o‘zgaruvchan talab va raqobat muhitiga yuqori darajada moslashuvchanlikni ta‘minlovchi “differensial strategiyalar”ga ko‘ra strategik tanlovlarning samaradorligini aniqlash, resurslarni maqsadli yo‘naltirish va ustuvor yo‘nalishlarni belgilash natijasida biznes jarayonlar samaradorligini 23-27 % chegarasida oshirish taklifi asoslangan;

“ASIA PHARM PACK” ma‘sulyati cheklanga jamiyatining ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga ta’sir ko‘rsatuvchi ichki omillarning regression ekonometrik modeli asosida 2030-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiyada keltirilgan xulosa va tavsiyalarning ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, tadqiqot jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlaridan, xalqaro moliya institutlarining rasmiy ma’lumotlari va hisobotlaridan foydalanilganligi, mualliflik taklif va tavsiyalarining O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi amaliyotida joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati** shundan iboratki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida biznes jarayonlarini rivojlantirishda samarali strategiyalarni tanlash, ilmiy nazariyalarda ko‘p qo‘llaniladigan Six Sigma, Business reengineering va boshqa shunda o‘xshash modellar asosida tadbirkorlik subyektlaridagi biznes jarayonlarini tadqiq qilish ularni rivojlantirish va biznes jarayonlarini samarali tarzda tashkil va raqobat kurashida go‘lib bo‘lishida yaqindan yordam beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan takliflar va amaliy tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini biznes jarayonlarini rivojlantirish asosida ularning faoliyatini samaradorligi va raqobatbardoshligiga doir ishlab chiqiladigan dasturiy hujjatlar, sohni samarali rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlaridagi biznes jarayonlarini rivojlantirish strategiyalarini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “biznes jarayonlarini rivojlantirish strategiyalari” tushunchasining iqtisodiy mazmuni raqobatbardoshlikni oshirish, samaradorlikni maksimal darajaga yetkazish, moslashuvchanlikni ta‘minlashga yo‘naltirilgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining biznes operatsiyalari uzlusizligini ta‘minlash, resurslardan oqilona foydalanish va tashkilotning uzoq muddatli barqaror o‘sishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan yondashuv nuqtayi nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy ma’lumotlardan oliv o‘quv yurti talabalari uchun tavsiya etilgan “Tadbirkorlik va innovatsiyalar” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2023-yil 14-iyuldaggi 228-son buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning o‘quv qo‘llanmaga kiritilishi natijasida oliv o‘quv yurti talabalari va bo‘lg‘usi mutaxassislarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida biznes jarayonlarini rivojlantirish, raqobatbardoshlikni oshirish, moslashuvchanlikni ta‘minlash, resurslardan oqilona foydalanish va biznesning uzoq muddatli barqaror o‘sishini ta‘minlashda nazariy hamda amaliy bilimlarni yanada chuqurlashtirishda yangi bilim va ko‘nikmalarning hosil bo‘lishiga imkon yaratgan;

tadbirkorlik subyektlarida biznes jarayonlarini ko‘p omilli ko‘rsatkichlari tizimi yordamida baholashda “yuqori darajada samarali” ( $YKK_{yu} \geq 30$ ), “o‘rtacha yaxshi” ( $25 \leq YKK_{o‘ya} \leq 29,99$ ), “o‘rtacha zaif” ( $20 \leq YKK_{o‘z} \leq 24,99$ ), “zaif faoliyat” ( $15 \leq YKK_{zf} \leq 19,99$ ), “tanazzul yoqasida” ( $YKK_t < 15$ ) mezonlari orqali guruhlarga ajratilgan holda biznes samaradorligini aniqlash taklifi O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi tarkibidagi kichik biznes subyektlari ishlab chiqarish faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 27-avgustdaggi 06-05-33-9704-sonli, “AAR CLEAN” MChJning 2025-yil 19-martdaggi 16-sonli ma’lumotnomalari). Ilmiy taklifning amaliyatga joriy etilishi natijasida kichik biznes subyektlaridagi biznes jarayonlarini 7 ta ko‘rsatkich orqali baholash tadbirkorlik subyektlari uchun biznes jarayonlarining joriy holatini yaxshiroq anglash va samaradorligini baholash va buning natijasida ularni rivojlantirish bo‘yicha aniq va samarali qarorlar qabul qilish imkonini bergen;

kichik biznes subyektlarining biznes jarayonlarini rivojlantirishda bozordagi o‘zgaruvchan talab va raqobat muhitiga yuqori darajada moslashuvchanlikni ta’minlovchi “differensial strategiyalar”ga ko‘ra strategik tanlovlarning samaradorligini aniqlash, resurslarni maqsadli yo‘naltirish va ustuvor yo‘nalishlarni belgilash natijasida biznes jarayonlar samaradorligini 23-27 % chegarasida oshirish taklifi O‘zbekiston Savdo-sanoat Palatasi tarkibidagi kichik biznes subyektlari ishlab chiqarish faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 27-avgustdagi 06-05-33-9704-sonli, “ASIA PHARM PACK” MCHJning 2025-yil 24-martdagi 21-sonli ma’lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida kichik biznes subyektlarida o‘zgaruvchan bozor sharoitlarida tezkorlik bilan biznes strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyatini berib, kichik biznes subyektlarining xarajatlarini tejashga, xatolar kamayishiga, mijozlarda moslashuvchanlikni oshirishga va buning natijasida esa korxonaning faoliyati yaxshilanishi kuzatildi. Modelning tadqiqot obyekti bo‘lgan “ASIA PHARM PACK” MChJda qo‘llash natijasida korxona foydasining 3,6 % oshishiga, umumiy xarajatlarning esa qo‘srimcha ravishda -2,4 %ga kamayishiga olib keldi, buning natijasida esa korxonaning umumiy samaradorlik ko‘rsatkichi qo‘srimcha ravishda 5,1 %ga oshishiga erishilgan;

“ASIA PHARM PACK” ma’suliyati cheklangan jamiyatning mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta’sir ko‘rsatuvchi ichki omillarning regression ekonometrik modeli asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari O‘zbekiston Respublikasidagi qadoq materiallari ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarini strategik rivojlantirish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqishda va “ASIA PHARM PACK” korxonasining strategik qarorlar ishlab chiqish yo‘nalishlarini belgilashda foydalanilgan (O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 27-avgustdagi 06-05-33-9704-sonli, “ASIA PHARM PACK” MCHJning 2025-yil 24-martdagi 21-sonli ma’lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida “ASIA PHARM PACK” tibbiy qadoq materiallari ishlab chiqarish korxonasida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 2025–2030-yillarda o‘rtacha yiliga 3,0 foizga yoki 2030-yilda 2024-yilga nisbatan umumiy 1,19 barobarga oshishi baholangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari, 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, shundan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 3 ta ilmiy maqola va yana 3 ta mahalliy jurnallarda, 2 ta xalqaro jurnallarda maqola, 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlari materiallari to‘plamida ma’ruza tezislari chop etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, 9 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan bo‘lib, uning hajmi 152 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati oolib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Biznes jarayonlarini tashkil qilishning nazariy asoslari**” deb nomlangan bиринчи bobida tadbirkorlik subyektlaridagi biznes jarayonlarini tashkil etilish va takomillashtirishning nazariy asoslari, biznes-jarayonlarning mohiyatini oolib berish va turlarini tasniflash, biznes-jarayonlarini shakllantirish tamoyillari va uni takomillashtirish usullari hamda yondashuvlarini o‘rganish, biznes jarayonlarini rivojlantirish strategiyalarini o‘rganishga va biznes jarayonlarini rivojlantirishda xorij tajribasini qo‘llashning muhim jihatlari ko‘rib chiqilgan.

Biznes jarayonlarini o‘rganish tadbirkorlik subyektlariga turli xil muammolarni aniqlashga va eskirgan, takroriy va boshqa jarayonlarni aniqlash va bartaraf etishga yordam beradi. Kuchli raqobat sharoitida tirik qolish uchun tadbirkorlik subyektlari biznes jarayonlarini doimiy ravishda tadqiq etishlari, optimallashtirish va avtomatlashtirishlari kerak bo‘ladi. Bunda biznes subyektlari o‘z ichki imkoniyatlari va bundan tashqari ilmiy tadqiqot institutlari va tashkilotlarini jalb qilishlari mumkin. Bu biznesni tashkil qilish va boshqarishning yangi texnologiyalari va usullarini, faoliyatining yakuniy holati sifatini oshirishni hamda korxona faoliyatini yuritishning yangi, samaraliroq usullarini qo‘llashni talab qiladi.

Biznes jarayoni oddiy tarzda amalga oshiriladigan jarayonlardan farqli ravishda, murakkab va ko‘p qirrali tizim sifatida ajralib turadi. Ushbu jarayon tadbirkorlik faoliyatini o‘z ichiga olib, resurslarning o‘zaro uyg‘unligi asosida faqatgina faoliyatni tashkil qilish emas, balki boshqaruv, nazorat va muvofiqlashtirish funksiyalarini ham qamrab oladi. Shu bilan birga, biznes jarayon foyda olishga yo‘naltirilgan tizimli elementlarning o‘zaro aloqasini ta‘minlovchi mexanizmlar orqali ham ajralib turadi.


Turli xil o‘quv, ilmiy va ommaviy adabiyotlarda biznes jarayonlarini rivojlantirish strategiyalariga bir nechta tasniflar mavjud bo‘lib, biz buni quyidagicha ta’riflashni taklif etamiz:

**Biznes jarayonlarini rivojlantirish strategiyalari** – bu tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish, samaradorlikni maksimal darajaga yetkazish va bozor sharoitlariga moslashuvchanlikni ta‘minlash uchun ishlab chiqilgan tadbirkorlik yondashuvlari va qarorlar tizimidir. Ushbu strategiyalar biznes operatsiyalarining uzlusizligini ta‘minlash, resurslardan oqilona foydalanish va tashkilotning uzoq muddatli barqaror o‘sishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lib, ichki va tashqi omillarni chuqur tahlil qilish orqali shakllanadi.

Biznes jarayonlarini yaxshiroq anglash va boshqarish uchun tashkilotlar turli modellar va tayyor qoliplardan foydalanadilar. Ushbu modellar biznes jarayonlari tartibi, lavozimlar va ishchi xodimlar mas’ulyatlari, korxonaga turli xil oqimlarning

kirish va chiqishlari va biznesda qaror qabul qilish nuqtalarining vizual ko‘rinishini beradi. Bu orqali tadbirkorlarning yaxshiroq qaror qabul qilishlari va korxonaning kelgusi vazifalarini to‘g‘ri baholashlariga keng imkon yaratiladi. Bu esa biznes jarayonlarini tahlil qilishning ahamiyatini yanada oshiradi (1-rasm).

Dissertatsiyada jarayonlarni tashkil etish sohasidagi ilmiy nashrlar va tadqiqotlar asosida biznes jarayonlarini tashkil etishga turli omillar va modellar ta’sir ko‘rsatishi aniqlanib, ularni bilish imkonini berdi. Quyida muhim rol o‘ynaydigan ba’zi asosiy omillar va modellarni ko‘rshimiz mumkin: Biznes jarayonlarini avtomatlashtirish (BPA); Sanoat 4.0 texnologiyalari; MakGregorning X nazariyasi va Y nazariyasi; SCOR modeli; Demingning PDCA sikli; Olti Sigma DMAIC metodologiyasi; Mijoz sayohati xaritasi; Promouternig sof bali (NPS); Agile metodologiyasi.



**1-rasm. Biznes jarayonlarini tahlil qilishning ahamiyati<sup>6</sup>**


Tadqiqot jarayonida biznes jarayonlarini tahlil qilishda xorij tajribasida sistematik va kompleks tahlil qilish usullarini qo‘llash uch boshqichdan iborat ekanligi, bularga esa, elementar jarayonlarni tahlil qilish, asosiy jarayonlarning spetsifikatsiyasi, qo‘llab-quvvatlovchi jarayonlarning spetsifikatsiyasi kirishi o‘rganib chiqildi.

Dissertatsiyaning **“Tadbirkorlik subyektlaridagi biznes jarayonlarining hozirgi holati tahlili va tendensiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekistonda tadbirkorlik subyektlarini tashkil qilishning hozirgi holati va muammolari tahlilini amalga oshirish, tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy qilinishining biznes jarayonlariga ta’siri tahlilini amalga oshirish va tadbirkorlik subyektlaridagi biznes jarayonlarining hozirgi holati tahlilini amalga oshirish kabi masalalar o‘rganilgan.

<sup>6</sup> Muallif ishlanmasi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, hududlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish va bu orqali aholining real daromad manbalarini oshirishning muhim omili bo‘lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha qulay va ishbilarmonlik muhitini yaratish, shuningdek, ular uchun ishonchli kafolatlar yaratish ko‘zda tutilgan.

Ammo, kichik biznes subyektlarining davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishiga qaramasdan oxirgi yillarda faol ravishda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni yildan yilga kamayib bormoqda (2-rasm). Bu holatni tadbirkorlik subyektlari o‘rasidagi raqobatning kuchayishi, globallashuv tendensiyalarining oshishi va kichik tadbirkorlik subyektlarining yirik bizneslar tomonidan bozordan siqib chiqarish yoki qo‘sib olishi orqali izohlash mumkin. Buni oldini olish uchun kichik tadbirkorlik subyektlari o‘z biznes jarayonlarini rivojlantirgan holda optimal ko‘rinishga olib kelishlari lozim bo‘ladi.



**2-rasm. O‘zbekiston respublikasida faol faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni (yuridik shaxs sifatida faoliyat yuritayotgan, 1-yanvar holatiga ko‘ra)<sup>7</sup>**

Respublikamizdagи faol kichik tadbirkorlik subyektlari sonining oxirgi yillardagi tendensiyasini ko‘radigan bo‘lsak, bunda 2023-yil 1-yanvar holatida faol kichik tadbirkorlik subyektlarining soni tarixiy eng yuqori natijaga erishib 523556 tani tashkil etgan. Lekin, 2024-yilga kelib faol faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining sonida keskin kamayishni kuzatishimiz mumkin bo‘lib, 417080 tani tashkil etgan. Bundan tashqari, 2025 yil 1-yanvar holatiga ko‘ra faol kichik tadbirkorlik subyektlari sonining pasayishi davom etayotganini ko‘rishimiz mumkin, bunda ularning soni 358116 tani tashkil etib, o‘tgan 2024-yildagi holatga nisbatan 14 %ga pasayish kuzatilgan.

So‘nggi yillarda kichik biznes subyektlari mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim salmoqqa ega bo‘lmoqda yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatidagi natijalari salmoqli bo‘lib bormoqda. So‘nggi yillarda kichik biznes subyektlarining mamlakatimiz YaIMdagi ulushi salmoqli bo‘lib qolmoqda, xususan, 2022-yil yakunlari bo‘yicha bu

<sup>7</sup> O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tayyorlandi <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>

ko‘rsatkich 54,6 %ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil va 2024-yillarda 54,3 %ni tashkil etgan (1-jadval).

Qishloq xo‘jaligida kichik biznes ulushi yuqori darajada (98 %dan ortiq) saqlanmoqda va sohada ularning yetakchi mavqeい davom etmoqda. Xizmat ko‘rsatish tarmog‘ida esa kichik biznes ulushi 2022-yildagi 58,7 %dan 2024-yilda 67,4 %gacha sezilarli o‘sdi, bu esa xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznes uchun katta imkoniyatlar mavjudligini anglatadi.

Quyidagi jadval ma‘lumotlaridan ko‘rish mumkinki, sanoat sohasida kichik biznes ulushi 2022-yilgi 26,9 %dan 2024-yilda 32,4 %gacha oshgani ijobiy holat bo‘lib, sohada kichik biznes faolligining kuchayayotganini bildiradi. Qurilish tarmog‘ida esa 2023-yilda 78,6 %gacha ko‘tarilib, 2024-yilda 76,5 %ga ozgina pasaygani qayd etildi. Bu kichik biznes uchun qurilish sohasida keng imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Investitsiyalar tarkibida kichik biznes ulushi yuqori (56 % atrofida) bo‘lib, faollik saqlanayotgan bo‘lsa-da, ozgina pasayish kuzatilmoqda. Savdo va yo‘lovchi tashish sohalarida kichik biznes ulushi ancha yuqori va barqaror (88 % va 95 % atrofida).

### 1-jadval

#### **O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YaIM va tarmoqlar bo‘yicha ulushlari (2017–2024-yillar, foiz hisobida)<sup>8</sup>**


Ko‘rsatkichlar	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2017-yildan 2024-yilga nisbatan o‘sish (-/+)
<b>Kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi</b>	<b>67,2</b>	<b>64,3</b>	<b>58,5</b>	<b>57,5</b>	<b>56,9</b>	<b>54,6</b>	<b>54,3</b>	<b>54,3</b>	<b>-12,9</b>
Sanoat	41,2	37,4	25,8	27,9	27,0	26,9	27	32,4	-8,8
Qurilish	64,8	73,2	75,8	72,1	72,5	71,5	78,6	76,5	11,7
Qishloq xo‘jaligi	98,1	98,1	98,1	97,8	98,2	98,0	98,3	98,4	0,3
Investitsiya	38,8	34,9	44,3	50,3	56,7	57,0	56,8	56,2	18,0
Savdo	88,3	86,3	85,0	81,4	89,0	88,9	87,8	88,6	0,3
Xizmat ko‘rsatish	58,4	55,2	53,5	52,4	58,5	58,7	65,7	67,4	9
Yuk tashish	54,2	54,4	54,3	52,3	54,5	54,6	54,6	54,5	0,3
Yo‘lovchilar tashish	90,1	90,8	91,2	94,3	95,0	95,2	95,3	95,1	5,0
Bandlik	78,0	76,2	76,2	73,8	75,0	75,3	74,0	74,4	-3,6
Eksport	27,0	27,2	27,0	17,6	22,3	22,1	27,9	33,3	6,3
Import	53,6	56,2	61,6	51,4	48,7	49,1	50,5	48,6	-5

Eksportda kichik biznes ulushi so‘nggi yillarda jadal o‘sib, 2022-yildagi 22,1 %dan 2024-yilda 33,3 %gacha yetdi, bu kichik biznesning tashqi bozorlarga

<sup>8</sup> O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi  
<https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>

chiqish imkoniyatlari kengayayotganidan dalolat beradi. Importda esa kichik biznes ulushi barqaror, lekin ozgina pasayish kuzatilgan.

Hozirgi zamонавиy iqtisодиyотда, aynиqsa, kichik tadbirkorlik subyектлari faoliyatida tezkor va aniq qarorlar qabul qilish uchun zarur bo‘lgan muhim jihatlardan biri – **biznes jarayonлarini baholash tizimi** hisobланади. Har bir tadbirkorlik subyekti o‘z faoliyati samaradorligini doimiy tahlil qilish va o‘z vaqtida kerakli strategik va operativ qarorlarni ishlab chiqishi lozim. Shu maqsadda, ilmiy ishimiz doirasida **biznes jarayonлarini baholashning ko‘p omilli usuli sxemasi va funksiyasini** taklif qilgанимиз.



**3-rasm. Biznes jarayonлarini baholashning ko‘p omilli usuli mexanizmi<sup>9</sup>**

<sup>9</sup> Muallif ishlanmasi.

**Biznes jarayonlarini baholashning ko‘p omilli usuli** – bu korxonaning asosiy moliyaviy va operatsion ko‘rsatkichlari asosida tezkor va soddalashtirilgan holda baholash tizimidir. Mazkur usul korxonaning murakkab va uzoq davom etadigan ichki auditlari o‘rniga qisqa vaqt ichida aniq va tahliliy ma’lumotlar asosida biznes holatini baholash imkonini beradi.

Ushbu ilmiy yangiligimiz “AAR CLEAN” MChJ korxonasida 2021–2023-yillar ma’lumotlari asosida joriy qilingan bo‘lib, bunda ushbu yillardagi korxonaning moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari yordamida asosiy 7 ta ko‘rsatkich aniqlab olingan (2-jadval).

Ushbu ko‘rsatkichlar asosida STATA dasturida har bir ko‘rsatkichning korxona biznes faoliyatidagi ulushu qancha ekanligi topilgan bo‘lib, bunda biz Principal Component Analysis (PCA) usulidan foydalandik. Principal Component Analysis (PCA) – bu ko‘p o‘zgaruvchili modellashtirishda ishlatiladigan statistik usul bo‘lib, bir-biriga bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlar orasidan eng muhimlarini ajratib, umumlashtirilgan yagona ko‘rsatkich hosil qilishga yordam beradi. PCA usuli har bir ko‘rsatkichga statistik yuklama beradi va umumiylar axborot yukini maksimal darajada saqlagan holda model soddalashtiriladi. Ko‘p omilli iqtisodiy tahlil jarayonida o‘zgaruvchilar o‘rtasida bog‘liqlik (multikollinearlik) mavjud bo‘ladi. An’anaviy regressiya bu bog‘liqlik tufayli xatolarga olib keladi. PCA esa bu muammoni bartaraf etib, har bir o‘zgaruvchi uchun aniq statistik yuklama beradi.

## 2-jadval

### “AAR CLAEAN” MChJ korxonasining ko‘p omilli usuli mexanizmi ko‘rsatkichlari hisobi<sup>10</sup>

T/r	Ko‘rsatkich nomi	Yillar			2024-yildagi holat	2024-yilning 2023-yildan tafovuti
		2021	2022	2023		
1.	Mahsul dorlik (mln so‘m/ishchi)	47,65	52,85	59,42	67,37	+7,95
2.	Samaradorlik ko‘rsatkichi, (%)	15,30	14,39	13,55	14,96	+1,41
3.	Xarajatlar samaradorligi koeffitsiyenti	1,15	1,14	1,14	1,15	+0,01
4.	Kapital rentabelligi (ROI) koeffitsiyenti	1,34	1,26	1,23	1,47	+0,23
5.	Sotuvlar o‘sish sur’ati, (%)	22,72	16,06	17,92	29,21	+11,30
6.	Aylanma koeffitsiyenti	0,78	0,85	0,94	1,07	+0,13
7.	Ishlab chiqarish sig‘imi bandligi, (%)	75,48	80,66	84,81	91,07	+6,26

Yuqoridagi integral tahlildan ko‘rinib turibdiki, 2024-yilda kuzatilgan sezilarli o‘sish tendensiyasi bevosita 2021–2023-yillarda olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar va ishlab chiqilgan takliflarning natijasi bo‘lib xizmat qilgan. Ayniqsa, har bir omil bo‘yicha qilingan tahlil natijasida ishlab chiqilgan tavsiyalar korxona iqtisodiy holatini mustahkamlashga va rivojlanish sur’atlarini tezlashtirishga imkon berdi. Yagona kompleks ko‘rsatkichni hisoblashda quyidagi formula ishlab chiqildi:

$$YKK_{korxona} = \sum_{i=1}^7 \omega_i \times K_i \quad (1)$$

<sup>10</sup> Korxona ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

YKK – yagona kompleks ko‘rsatkich;

$\Omega_i$  – har bir ko‘rsatkichning vazni (ahamiyat darajasi);

$\sum \Omega_i = 1$  ya’ni, barcha vaznlarning yig‘indisi 1 ga teng bo‘lishi kerak.

Ko‘p omilli iqtisodiy tahlil jarayonida o‘zgaruvchilar o‘rtasida bog‘liqlik (multikollinearlik) mavjud bo‘ladi. An’anaviy regressiya bu bog‘liqlik tufayli xatolarga olib keladi. PCA esa bu muammoni bartaraf etib, har bir o‘zgaruvchi uchun aniq statistik yuklama beradi. PCA modeli asosida har bir ko‘rsatkichning vazn qiymatlari topilib, yagona kompleks qiymatlari yuqoridagi formula (1) yordamida hisoblab chiqildi (3-jadval).

### 3-jadval

#### Yagona kompleks ko‘rsatkichining barcha yillar bo‘yicha hisobi<sup>11</sup>

Ko‘rsatkich	Vazn (w <sub>i</sub> )	2021	2022	2023	2024
Mahsulorlik	0,1425	47,65	52,85	59,42	67,37
Samaradorlik	0,1429	15,30	14,39	13,55	14,96
Xar_samaradorligi	0,1429	1,15	1,14	1,14	1,15
ROI	0,1376	1,34	1,26	1,23	1,47
Sotuv o‘sishi	0,1414	22,72	16,06	17,92	29,21
Aylanma	0,1425	0,78	0,8	0,94	1,07
Sig‘im	0,1429	75,48	80,66	84,81	91,07
<b>Yig‘indi</b>	<b>1,000</b>	<b>21,2802</b>	<b>22,4912</b>	<b>23,6052</b>	<b>28,5067</b>

Yuqoridagi integral tahlildan ko‘rinib turibdiki, 2024-yilda kuzatilgan sezilarli o‘sish tendensiyasi bevosita 2021–2023-yillarda olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar va ishlab chiqilgan takliflarning natijasi bo‘lib xizmat qilgan.

### 4-jadval

#### Yagona kompleks ko‘rsatkich qiymatini baholash mezonlari<sup>12</sup>

YKK qiymati	Baholash	Izoh
<b>30 va undan yuqori</b>	<b>Yuqori darajada samarali</b>	Korxona moliyaviy va ishlab chiqarish jihatdan barqaror, innovatsion rivojlanishga tayyor. Innovatsiya va kengayish starategiyalarini qo‘llash maqsadga muvofiq.
<b>25 - 29,99</b>	<b>O‘rtacha yaxshi</b>	Barqaror rivojlanayotgan, lekin ayrim jihatlarga e’tibor kerak
<b>20 - 24,99</b>	<b>O‘rtacha zaif</b>	Moliyaviy muammolar yoki boshqaruvdagi muammolar mavjud, zudlik bilan tahlil va o‘zgartirish zarur
<b>15 - 19,99</b>	<b>Zaif faoliyat</b>	Barqarorlik xavf ostida, foyda past, investitsiya jalb qilish qiyin, qayta restrukturizatsiya zarur
<b>15 dan past</b>	<b>Tanazzul yoqasida</b>	Bankrotlik yoki to‘liq ishdan chiqish xavfi, tashqi boshqaruv, moliyaviy ko‘mak zarur

Ayniqsa, har bir omil bo‘yicha qilingan tahlil natijasida ishlab chiqilgan tavsiyalar korxona iqtisodiy holatini mustahkamlashga va rivojlanish sur’atlarini tezlashtirishga imkon berdi. Yagona kompleks ko‘rsatkichining qiymatiga qarab korxona biznes jarayonlari holati aniqlanadi (4-jadval).

<sup>11</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>12</sup> OECD (2008) — Handbook on Constructing Composite Indicators - asosida ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi jadvaldan shuni ko‘rish mumkinki, “AAR CLEAN” MChJ korxonasida YKK ko‘rsatkichlari 2021–2023-yillar davomida o‘rtacha zaif qiymatda bo‘lgan va taklif qilingan amaliy taklif hamda tavsiyalar asosida va bajarilgan ishlar natijasida 2024-yilga kelib YKK qiymati o‘rtacha yaxshi holatga erishgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Biznes jarayonlarini takomillashtirish strategiyalarini ishlab chiqish yo‘nalishlari”** deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobda, tadbirkorlik subyektlaridagi biznes jarayonlarini optimallashtirishning metodologik asoslari, tadbirkorlik subyektlarida biznes jarayonlarini takomillashtirish strategiyalarining to‘g‘ri tanlash metodologiyasi va prognoz ko‘rsatkichlari yoritilgan.


Korxona faoliyati maqsadlarining o‘ziga xosligi ma’lum miqdoriy ko‘rsatkichlarni joriy etishni talab qiladi, ularning yordami bilan uning samaradorligini umuman kuzatish va baholash mumkin. Korxonalar va tashkilotlarning biznes jarayonlarini baholash ko‘rsatkichlarini tanlash bo‘yicha barcha mavjud ilmiy qarashlarning asosini o‘rganish obyektini tahlil qilishning sifat va miqdoriy yondashuvlari tashkil etadi.

Dissertatsiyada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali tashkil etish va ularning raqobatbardoshligini ta’minlash maqsadida **differensial strategiyalar asosida moslashuvchan biznes jarayonlarini rivojlantirish modeli** ishlab chiqildi (4-rasm). Mazkur modelda differensial strategiyalarni tanlash va ularni amalga oshirishda ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash uchun analitik ierarxik tahlil (AHP) metodikasi integratsiyalandi. Bu yondashuv kichik biznes subyektlariga bozor o‘zgarishlariga tezkor moslashish, raqobatbardoshlikni oshirish hamda samarali biznes jarayonlarini shakllantirish imkonini beradi.

Bu strategiyalar faqat o‘zaro tanlanmaydi, balki ular bir-birini to‘ldiruvchi moslashuvchan kombinatsiya tarzida qo‘llanadi. Natijada, kichik biznes o‘z mijozlari uchun doimiy ravishda o‘ziga xos va qadrli taklif yaratish imkoniga ega bo‘ladi.

Model quyidagi asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi: Tashqi va ichki muhit tahlili orqali kichik biznesning imkoniyatlari, xatarlar va ehtiyojlari aniqlanadi; Differensial strategiyalarni shakllantirish bosqichida mahsulot, xizmat ko‘rsatish sifati, marketing va innovatsiyalar bo‘yicha strategiyalar tanlanadi; Tanlangan strategiyalar asosida moslashuvchan biznes jarayonlari loyihalanadi va analitik ierarxik tahlil (AHP) usuli orqali ilmiy asosda baholanadi; Strategik tanlov va ustuvor yo‘nalishlar aniqlanib, biznes jarayonlari amaliyotga joriy etiladi; Amalga oshirilgan jarayonlar natijalari doimiy monitoring va tahlil qilinib, zarurat tug‘ilganda strategiyalar qayta ko‘rib chiqiladi.

Differensial strategiyalarni “ASIA PHARM PACK” MChJ korxonasida qo‘llash natijasida, korxona foydasining 3,6 % oshishiga, umumiy xarajatlarning esa qo‘shimcha ravishda -2,4 %ga kamayishiga olib kelingani, buning natijasida esa korxonaning umumiy samaradorlik ko‘rsatkichi qo‘shimcha ravishda 5,1 %ga oshishiga erishilgan.



**4-rasm. Kichik biznes subyektlari uchun differensial strategiyalar asosida moslashuvchan biznes jarayonlarini rivojlanish modeli chizmasi<sup>13</sup>**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes subyektlari tomonidan barqaror va samarali faoliyat yuritish, raqobatbardoshligini ta'minlash hamda innovatsion rivojlanishga erishish uchun moslashuvchan va ilmiy asoslangan boshqaruv

<sup>13</sup> Muallif ishlanmasi.

mexanizmlarini joriy etish alohida dolzarblik kasb etadi. Shu jihatdan qaralganda, mazkur tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan differensial strategiyalar asosida moslashuvchan biznes jarayonlarini shakllantirish modeli kichik biznes subyektlari uchun nafaqat amaliyotda qo'llanishi mumkin bo'lgan, balki ilmiy asoslangan yondashuv sifatida ham xizmat qilishi mumkin.

Taklif etilgan modelning ilmiy va amaliy ahamiyati shundaki, u strategik qarorlar qabul qilishdan tortib, operatsion faoliyatni tashkil etishgacha bo'lgan barcha bosqichlarni yagona, uzviy va dinamik tizimda boshqarish imkonini beradi. Model asosida ishlab chiqilgan yondashuv kichik biznes subyektlarining innovatsion va raqobatbardosh faoliyatini shakllantirishda muhim nazariy va amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi tez o'zgaruvchan iqtisodiy muhitda tadbirkorlik subyektlarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda biznes jarayonlarini chuqur tahlil qilish va ularning keljakdagagi yo'nalishlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda prognozlash usullaridan foydalanish tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish, resurslarni oqilona taqsimlash va raqobatbardosh ustunlikka erishishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, kichik va o'rtalagi biznes subyektlari uchun biznes jarayonlari rivojining bashoratli baholanishi strategik qarorlar qabul qilishda ishchilar tayanch vazifasini bajaradi. Shu nuqtayi nazardan, biznes jarayonlarni prognozlashtirish nafaqat hozirgi holatni tahlil qilish, balki uzoq muddatli rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini belgilash imkonini ham yaratadi.

